

GIPERTENZIYA KASALLIGINING COVID-19 INFEKSIYASIGA
CHALINGAN BEMORLARDAGI KECHISHI: ILMUY VA STATISTIK TAHLILI.

Teshaboyev Umidjon Abdurakimovich

Isroilov Farhodjon Ilhomjon o'g'li

Central Asian Medical University, assistant

uteshaboyev695@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada gipertenziya (yuqori qon bosimi) kasalligiga chalingan bemorlarda COVID-19 infeksiyäsining klinik kechishi, murakkablanish xavfi va o'lim ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Turli mamlakatlarda olib borilgan epidemiologik va klinik tadqiqotlar asosida gipertenziyaning COVID-19 bilan bog'liq sog'liq xavflariga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rnatildi.

Kalit so'zlar: gipertenziya, COVID-19, klinik kechish, asoratlar, o'lim holatlari, hamroh kasalliklar

Аннотация: В данной статье проанализированы клиническое течение, риск осложнений и показатели смертности от инфекции COVID-19 у пациентов с артериальной гипертензией (повышенным артериальным давлением). На основе эпидемиологических и клинических исследований, проведённых в различных странах, изучено влияние гипертензии на риски для здоровья, связанные с COVID-19.

Ключевые слова: гипертензия, COVID-19, клиническое течение, осложнения, смертность, сопутствующие заболевания

Annotation: This article analyzes the clinical course, risk of complications, and mortality rates of COVID-19 infection in patients suffering from hypertension (high blood pressure). Based on epidemiological and clinical studies conducted in various countries, the impact of hypertension on health risks associated with COVID-19 has been explored.

Keywords: hypertension, COVID-19, clinical course, complications, mortality, comorbidity

Dolzarbli: Gipertenziya kasalligi butun dunyo bo‘ylab sog‘liqni saqlash tizimi uchun eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, har uchinchi katta yoshli insonda arterial gipertenziya mavjud. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu kasallikning aniqlanishi, nazorat ostiga olinishi va davolanishi past darajada bo‘lib, ko‘plab asoratlar bilan kechadi.

COVID-19 pandemiyasi esa ushbu global muammoni yanada chuqurlashtirdi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, surunkali kasalliklarga chalingan bemorlar, xususan, gipertenziysi bor shaxslar, COVID-19 infeksiyasiga chalinganida kasallikning og‘ir kechishi, intensiv terapiyaga yotqizilish va o‘lim xavfi yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, pandemiyaning ilk bosqichida ushbu bemorlar orasida o‘lim darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Shu sababli, gipertenziya va COVID-19 o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish, kasallikning patofiziologiyasini chuqur tahlil qilish va davolash protokollarini yangilash zamonaviy tibbiyotning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar nafaqat klinik qarorlar qabul qilishda, balki sog‘liqni saqlash siyosatini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir dolzarb jihat - pandemiyadan keyingi davrda “long COVID” sindromi fonida gipertenziysi bo‘lgan bemorlarda yurak-qon tomir tizimi faoliyatining yanada yomonlashuvi kuzatilmoqda. Bu esa kasallikning uzoq muddatli monitoringi va reabilitatsiyasini tashkil qilish zaruratini tug‘diradi.

Demak, gipertenziya va COVID-19 infeksiyasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqur o‘rganish, bu kasalliklarning kompleks kechishini tushunish va individual yondashuv asosida profilaktik, diagnostik hamda davolash choralarini ishlab chiqish - zamonaviy tibbiyotning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Tekshiruvning maqsadi: Covid-19 infeksiyasi aniqlangan bemorlarda gipertenziya bilan og‘riqan bemorlarda kechishini o‘rganish va umumiylilik tahlil qilish.

Material va metodlar: Tadqiqot Farg‘ona shaxar 2 - sonli shifoxonasida 2020 yil aprel - dekabr oylarida Covid-19 infeksiyasi aniqlanib murojat qilgan va davolanishga

olib kelingan 1109 nafar bemorlar kasallik varaqalaridan olingen ma'lumotlar asosida Gipertenziya bilan og'igan bemorlar kasallik varaqalari ajratib olinib tahlil olib borildi.

Kirish. COVID-19 pandemiyasi global sog'liqni saqlash tizimlariga jiddiy bosim o'tkazdi. Surunkali kasallikkarga, xususan gipertenziyaga chalingan shaxslar bu pandemiyadan eng ko'p zarar ko'rgan guruhlardan biridir. Gipertenziya yurak-qon tomir tizimi uchun asosiy xavf omili bo'lib, bu kasallik COVID-19 infeksiyasining og'ir kechishiga olib keluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Gipertenziya va COVID-19: Patofiziologik asoslar. COVID-19 virusi (SARS-CoV-2) inson organizmiga ACE2 (angiotenzin konvertaza fermenti 2) retseptorlari orqali kiradi. Bu retseptorlar yurak, buyrak, o'pka va qon tomir endoteliyida keng tarqalgan. Gipertenziya bilan og'igan bemorlarda RAAS (renin-angiotenzin-aldosteron tizimi) tizimining disbalansi mavjud bo'lib, bu ACE2 ni pasaytiradi va virusning ta'sirini kuchaytiradi (Hoffmann et al., 2020; Zhou et al., 2020).

RAAS tizimidagi disfunksiya gipertenziya bo'lgan bemorlarda:

Endotelial disfunktsiyani kuchaytiradi,

Sitokin bo'roni (inflammatsion reaksiyani) yuzaga keltiradi,

Koagulatsion buzilishlarga olib keladi,

Yurak va o'pka shikastlanishini tezlashtiradi.

Xalqaro tatqiqotlar:

1. Filippindagi CORONA Tadqiqoti (2023). Filippinning 37 ta shifoxonasida o'tkazilgan retrospektiv kohort tadqiqotida 10,881 COVID-19 bemorining 33,5%ida gipertenziya mavjudligi aniqlangan. Gipertenziya bilan og'igan bemorlarda in-hospital o'lim xavfi 1,33 barobar, nafas yetishmovchiligi xavfi 1,99 barobar, intensiv terapiya bo'limiga yotqizish ehtimoli 2,16 barobar va og'ir/og'ir shaklda kasallanish ehtimoli 1,57 barobar yuqori bo'lgan. Bundan tashqari, gipertenziya bo'lgan bemorlarning kasallikning og'ir shakllariga chalinish va o'limga uchrash ehtimoli ancha yuqori ekanligi aniqlangan.

2. Lagos, Nigeriyadagi Tadqiqot (2021) Lagosda o'tkazilgan retrospektiv kohort tadqiqotida gipertenziya bilan og'igan bemorlarda kasallikning og'ir shakllari va o'lim xavfi sezilarli darajada yuqori bo'lganligi aniqlangan. Gipertenziya bo'lgan bemorlarning 13,7% o'lgan bo'lsa, gipertenziya va boshqa surunkali kasalliklar bilan og'igan bemorlarda o'lim darajasi 27,5%gacha yetgan. Bu natijalar gipertenziya va boshqa surunkali kasalliklarning COVID-19 ning kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

3. Ispaniyadagi Tadqiqot (2020) Ispaniyada o'tkazilgan ko'p markazli retrospektiv tadqiqotda 12,226 bemor o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, gipertenziya bo'lgan bemorlarda umumiy o'lim xavfi 1,6 barobar yuqori bo'lgan. Shuningdek, angiotenzin-konvertaza fermenti ingibitorlari (ACEI) yoki angiotenzin II reseptor blokatorlari (ARB) bilan davolangan gipertenziya bemorlarida o'lim xavfi boshqa dorilar bilan davolanganlarga nisbatan pastroq bo'lganligi aniqlangan.

4. Vuhanda o'tkazilgan Tadqiqot (2020) Vuhanda o'tkazilgan retrospektiv tadqiqotda 803 gipertenziya bilan og'igan COVID-19 bemorining klinik ma'lumotlari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'lim xavfi va yurak yetishmovchiligi xavfi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Sistolik qon bosimi va impuls bosimi yuqori bo'lgan bemorlarda yurak yetishmovchiligi xavfi oshganligi aniqlangan.

5. Birlashgan Qirollikdagi Tadqiqot (2022) Kembrij universitetida o'tkazilgan tadqiqotda gipertenziya bilan og'igan COVID-19 ning og'ir kechish xavfi 22%ga yuqori bo'lganligi aniqlangan. Ayniqsa, sistolik qon bosimi 150-159 mmHg bo'lgan bemorlarda og'ir kasallanish xavfi 91%ga oshgan. Bundan tashqari, dori vositalarining turi COVID-19 ning kechishiga ta'sir qilmasligi ko'rsatilgan.

6. Jahon Tadqiqotlari (2022) 1468 ta tadqiqotdan iborat 52 ta meta-tahlilda 1,281,510 COVID-19 bemori o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, gipertenziya bo'lgan bemorlarda o'lim xavfi 1,79 barobar, kasallikning og'ir shakllari xavfi 1,74 barobar va intensiv terapiya bo'limiga yotqizish ehtimoli 1,91 barobar yuqori bo'lgan. Bu gipertenziya va COVID-19 ning o'zaro ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Izlanishlar davomida Farg‘ona shahar 2-sonli shifoxonasida aprel-dekabr oylarida Covid-19 infeksiyasi aniqlanib murojat qilgan taxminan 1109 nafar bemorlarda olib borildi. Bemorlarning o‘rtacha yoshi taxminan 48 yosh bo‘lib tashkil qilgan. Kuzatuvga olingan bemorlarda koronavirus infektsiyasining klinik belgilari va hamrox kasalliklarning klinik ko‘rinishi o‘rganildi. Kuzatuvimizdagi bemorlarning kasallikning dastlabki kunlaridagi shikoyatlari va surunkali kasalliklar bilan kasallinish darajasi statistik usulda tahlil qilindi.

Kasallikning bemorlarda yoshi bo‘yicha uchrashi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ldi:

Kasallikning bemorlarda yoshi bo‘yicha uchrashi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ldi:

0-9 yosh (1%) – 8 nafar,

10-19 yosh (2%) – 19 nafar

20-29 yosh (6%) – 72 nafar

30-39 yosh (18%) – 203 nafar

40-49 yosh (19%) – 210 nafar

50-59 yosh (23%) – 253 nafar

60-69 yosh (21%) – 235 nafar

70 yosh – va undan kattalar (10%) – 109 nafar bemorlarni tashkil etdi.

Tahlillardan shifoxonaga 30 yosda 70 yoshgacha bo‘lgan bemorlar soni ko‘pligi ko‘rinib turibdi.

Bemorlarda kasallikni og‘ir - yengil darajada o‘tishi hamroh kasalligi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. 407 nafar kasallanganlarda hamroh kasalliklari borligi aniqlangan. Bunda asosan 140 nafar bemorlar gipertoniya kasalligi, 26 nafar bemorni qandli diabet, 7 nafar bemorda miokard infarkti, 9 nafar bemorda semizlik, 223 nafar bemorda boshqa turli xil hamroh kasalliklari asosan - surunkali bronxit, pnevmaniya, bronxopnevmoniya, shifoxonadan tashqari o‘tkir pnevmaniya, bronxial astma, o‘tkir faringit, yurak ishemik kasalliklari, stenokardiya, yurak ishemik kasalligi sindromi, 12 barmoqli ichak kasalliklari, siydik yo‘li kasalliklari, anemiya, 2- gurux nogironligi bor bemorlarda kuzatilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki hamroh kasalligi bor bemorlarning 55% da gipertatiya kasalligi borligi aniqlangan. Kasallikni kechishi nisbatan og‘ir kechgan. Ammo kasallikni kechishida immunitetning ro‘li xam muxum ahamiyat kasb etgan. Immuniteti mustahkam kishilarda kasallik yengil o‘tgan.

Kasallikni davolashda malakali shifokor har bir bemor uchun alohida-alohida dorilar bilan davolash kursini tanlaydi. Davolash paytida bemorlar har qanday stress yoki hissiy zo‘riqishdan yiroq bo‘lganlari ma’qul. Bemorlar ochiq havoda: hovuz atrofida, bog‘da, o‘rmonda sayr qilishlari tavsiya etiadi. To‘g‘ri ovqatlanish gipertoniyanı muvaffaqiyatli davolashda muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari barcha kasalliklar kabi gipertaniyada xam sog‘lom ovqatlanishga rioya qilishimiz zarur ayniqsa covid 19 pandemiyası vaqtida xar ikki kasallikni ham oldini olish uchun kunlik ratsionimizga kata ahamiyat berishimiz kerak. Gipertaniya va covid 19 ni davolashda qonni suyiltiruvchi va immunitetni oshiruvchi, ruxga boy maxsulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki kasallikni davolashda bu kasallikká chalingan bemorlarda yoki boshqa surunkali kasalliklari bor bemorlarda psixologik o‘zgarishlar xam kuzatilgan. Shu sababli davolash muassasalarida psixologik yordamni shakllantirish ham kasallikni davolashda muhim o‘rin egallagan.

Davolash natijasida 986 nafar bemor tuzalib statsionar nazorati ostida uylariga javob berilgan. 116 nafar bemor har xil sabablarga ko‘ra boshqa muassasalarga o‘tkazilgan. 7 nafar bemor vafot yetgan.

Kasallikdan so‘ng 474 nafar bemorda turli xil kasallik asoratlari kuzatilgan. Bu asoratlarga asosan shifoxonadan tashqari pnevmaniya, pnevmaniya, o‘tkir pnevmoniya, 2 tomonlama pnevmaniya, pnevmaniya 1-2 daraja, o‘tkir nafas yetishmovchiligining 1-2-3 - darajalari, yurak yetishmovchiligi 2 daraja, asoratlari kuzatilgan.

Davolash va klinik boshqaruv. Gipertenziya bilan og‘rigan COVID-19 bemorlarini davolashda individual yondashuv zarur. Avvaliga ACEI va ARB dorilari xavfli deb qaralgan bo‘lsa-da, keyingi tadqiqotlar, xususan BRACE CORONA (Lopes et al., 2021), ushbu dorilarni to‘xtatmaslik kerakligini isbotladi.

Profilaktik chora-tadbirlar: COVID-19 ga qarshi emlanish, qon bosimini muntazam nazorat qilish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, imkon qadar stressdan saqlanish.


Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, gipertenziya kasalligi COVID-19 infeksiyäsining og‘ir kechishiga va o‘lim xavfining ortishiga sabab bo‘ladi.

Patofiziologik mexanizmlar va klinik kuzatishlar gipertenziyani xavf omili sifatida baholashning to‘liq asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun gipertenziya bilan og‘rigan bemorlar uchun COVID-19 profilaktikasi va davolashida maxsus e’tibor zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Covid-19 kasalligi bilan kasallangan bemorlar kasallik varaqalari.
2. Guan W.J. et al. (2020). NEJM, 382(18), 1708-1720.
3. Hoffmann M. et al. (2020). Cell, 181(2), 271-280.
4. Zhou F. et al. (2020). The Lancet, 395(10229), 1054-1062.
5. Gupta A. et al. (2021). Front Physiol, 12, 636879.
6. Pranata R. et al. (2020). JRAAS, 21(2).
7. Lopes R.D. et al. (2021). JAMA, 325(3), 254–264.
8. Systematic Reviews Journal (2022).
9. CDC (2022). COVID-19 vaccines for high-risk groups.
10. European Journal of Medical Research (2023).
11. Global Health Research and Policy (2021).
12. eurjmedres.biomedcentral.com
13. ghrp.biomedcentral.com
14. pubmed.ncbi.nlm.nih.gov
15. verywellhealth.com

16.systematicreviewsjournal.biomedcentral.com



<https://scientific-jl.org/obr>